ALIFBE MANZUMALAR BADIIYATI VA ULARNI O‘RGATISH METODIKASI

Akramova Surayo Renatovna
BuxDPI dotsenti (PhD)
Usmonqulova Sohiba Mirzohid qizi
Buxoro davlat pedagogika institute boshlang‘ich ta’lim kafedrasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda Alifbe manzumalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va shakllarini ko‘rsatish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining biluv faoliyati va uning o‘ziga xos xususiyatlarini oshirish hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari biluv faolligini takomillashtirishning usul va vositalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘lar: Alifbe, metod, usul, harf, tovush, bo‘g‘in, so‘z, gap, matn, nutq, ongli o‘qish, lug‘at, savod o‘rgatish.

Аннотация. В данной статье ставится задача повышения познавательной активности младших школьников и ее особенностей, а также улучшения познавательной деятельности младших школьников путем показа особенностей и форм обучения алфавиту в начальных классах, обсуждаются методы и средства.

Ключевые слова: Алфавит, метод, прием, буква, звук, слог, слово, предложение, текст, речь, осознанное чтение, словарный запас, обучение грамоте.

Annotatsion. This article aims to increase the cognitive activity of primary school students and its specific features and improve the cognitive activity of primary school students by showing the specific features and forms of teaching the alphabet in primary grades. methods and tools are discussed.

Key words: Alphabet, method, method, letter, sound, syllable, word, sentence, text, speech, conscious reading, vocabulary, teaching literacy.

Kirish

Ma’lumki, savod o‘rgatish jarayonidagi o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish orqali bolalarda to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilar lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, bilimini boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o‘stirishda ham bu davr mas’uliyatliligi bilan alohida o‘rin tutadi.Tayyorgarlik davri o‘qishga o‘rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o‘zgalar nutqini eshitish, diqqatni to‘plash, til birliklarini (tovush, bo‘g‘in, so‘z, gap)

ISSN 3030-3907

farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bular o‘quvchilarning o‘qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

Asosiy qism. Ongli o‘qishni ifodali o‘qishdan ajratib bo‘lmaydi. Ammo analitik o‘qishning birinchi bosqichida ifodali o‘qish mumkin emas, chunki bolalar so‘zda urg‘uli bo‘g‘inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonatsiyani, so‘roq ohangini, hatto, orfoepik to‘g‘ri o‘qishni ham bilmaydilar. Shuning uchun analitik o‘qish bosqichida so‘zni yaxlit, orfoepik qayta o‘qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o‘qish to‘g‘ri intonatsiyaga, ifodalilikka rioya qilib o‘qishga o‘rgatibgina qolmay, o‘qishning ongli bo‘lishiga ham yordam beradi. Savod o‘rgatishning birinchi darslaridayoq o‘quvchilarga tabaqalashtirib (differensial) yondashish (bunda o‘quvchilarnig o‘qishga tayyorgarliklaridagi fikrlar hisobga olinadi) amalga oshiriladi. O‘qishning ongliligini va ta’sirchanligini ta’minlash uchun matn mazmunini o‘quvchilam ing ko‘rgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bog‘lash lozim. Shunda o‘quvchida o‘qishga, o‘rganishga qiziqish ortadi.Ongli o‘zlashtirishni amalga oshirishda lug‘at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. So‘zlarnig ma’nosi ustida to‘xtalish, birinchidan, fikmi oydinlashtirsa, ikkinchi tom ondan matnni tushunishga ham yordam beradi.She’r, tez aytish, topishm oq, qo‘shiq, maqol, hikmatli so‘zlardan o‘qitish, yod oldirish ham o‘quvchilam ing o‘qishga qiziqishini oshiradi, o‘qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining uchdan ikki qismi o‘qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

O‘qishga o‘rgatish uchun, avvalo, o‘quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo‘g‘indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog‘lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so‘ng kerakli so‘z ajratib olinadi, so‘ngra so‘z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

2. So‘z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o‘rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: oy. O‘qituvchi oy rasmini ko‘rsatadi, o‘quvchilar uning nomini - so‘zni aytadi. O‘qituvchi o tovushini cho‘zib (o-o-o-y) aytadi va qaysi tovushni cho‘zib aytayotganini o‘quvchilardan so‘raydi. O‘quvchilar o tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o‘tkaziladi. O tovushli so‘zlar o‘ylab toptiriladi. Shundan so‘ng o harfi kesma harfdan yoki rasmli alifbodan ko‘rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e’tibor qaratiladi.

3. O‘rganilgan harflar ichiga bugun o‘rganiladigan harf aralashtirib qo‘yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so‘ng o‘qituvchi bu harf

ISSN 3030-3907

ifodalaydigan tovushni aytadi. O‘quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmli alifbodan ko‘rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o‘qishga o‘rgatish ustida ishlanadi. O‘qishga o‘rgatishda bo‘g‘in asos qilib olinadi. Buning uchun o‘qituvchida bo‘g‘in jadvali bo‘lishi lozim. Bo‘g‘in jadvali asosida o‘qish namunasi ko‘rsatiladi, ya’ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko‘z bilan ko‘rib, uning nom ini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko‘rish va ikkalasini bog‘lab, unlini mo‘ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo‘g‘in o‘qish o‘qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. Bunda quyidagi kabi chizmalardan foydalanish mumkin: Bunda “Alifbe” sahifalaridagi so‘zlarni oldin bo‘g‘inga bo‘lish, so‘ng o‘qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O‘qituvchining namunali o‘qishidan so‘ng birgalikda ovoz chiqarib o‘qish, yakka-yakka o‘qish, shivirlab o‘qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o‘qiydigan o‘quvchilar bo‘lgan sinflarda xor bilan o‘qitish o‘qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so‘zlarni xattaxtada bo‘g‘inlarga bo‘lib yozish, o‘rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo‘shim cha so‘z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o‘qitish usulidan ham foydalaniladi.

Savod o‘rgatish uch davrdan iborat:

1. Tayyorgarlik davri.
2. Alifbe harfiy davr.
3. Alifbedan keyingi - o‘qish va yozishga o‘rgatish davri.

Tayyorgarlik davri bir hafta davom etadi, bu davrning ahamiyati shundaki, bolalar nutqni o‘stirishga, harflarning belgisini yozishga o‘rganishlari kerak.

Tayyorgarlik davrining vazifalari quyidagilardir:

1. Maktab hayoti bilan tanishtiriladi, qoidalari hamda talablari o‘rgatiladi.
2. O‘qituvchi o‘quvchilar jamoasini tashkil etish va har bir o‘quvchi shu jamoaning a’zosi hamda barcha o‘quvchilar bir-biriga tutungan aka-uka hamda opa-singil ekanligini ular ongiga singdiradi.
3. Partada to‘g‘ri o‘tirish, o‘ng qo‘l qoidasi, ya’ni savol yoki javob berishdan avval qo‘l ko‘tarish, hamma eshitadigan qilib shoshilmay, dona-dona qilib, tushunarli holda gapirish, kitob va daftar hamda o‘tirgan o‘rnini ozoda tutish, maktab jihozlarini yaxshi saqlash lozimligi va boshqalar haqida tushuntiriladi.
4. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan tanishadi, ularni o‘rganib chiqadi.
5. O‘quvchilar o‘quv qurollari vas inf xonasi bilan tanishtiriladi. Birinchi navbatda, “Alifbe” kitobi bilan tanishtiriladi. Uning muqovasi, muallifi, varaqlari bilan tanishtiriladi.
6. Yozuv daftarini qanday tutish kerakligi tushuntiriladi.

ISSN 3030-3907

7. O‘quvchilarning nutqini o‘stirish uchun so‘z, gap, hikoya ustida ishlanadi.
8. Tovushni analiz va sintez qilishga o‘rgatiladi.

Nutqni analiz qilishga o‘quvchilarni o‘rgatishda, asosan, analitik mashqlardan foydalaniladi. Bunda o‘quvchilar gapni so‘zlarga bo‘lish yuzasidan dastlabki mashqlarni bajaradi. Ular quyidagilardir:

1. Alifbe kitobidagi rasmlarga qarab gaplar tuziladi.
2. Har bir gapdagi so‘zlar nechta ekanligi aniqlanadi.
3.Tuzilgan gapdagi so‘zlar chiziqlar bilan belgilab ko‘rsatiladi.
4. Gaplar sxemaga solinadi.
5. So‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi: bo-la, mak-tab, daf-tar.
6. So‘zdagi ayrim unli va undosh tovushlar haqida ma’lumot beriladi.

Yozuvga o‘rgatish. Birinchi sinf o‘quvchilari uchun harf va harflarni to‘g‘ri qo‘shib yozish qiyin va muhim mashg‘ulot hisoblanadi. Alifbegacha bo‘lgan davrda bolalar yozuvga tayyorlaydigan mashqlarni bajaradilar.

Avvalo, bolalarni yozuv mashqini bajarish vaqtida to‘g‘ri va erkin o‘tirishga, ruchkani to‘g‘ri ushlashga, daftarni parta ustida me’yordagi qiyalikda qo‘yishga o‘rgatish muhim ahammiyatga ega. Buning uchun “Yozganda to‘g‘ri o‘tir” nomli rasmdan foydalaniladi.

Daftar chiziqlari bilan tanishtiriladi va unga harf qismlarini yozishga, ular oralig‘ini to‘g‘ri chamalashga o‘rgatiladi.

Savod o‘rgatishning dastlabgi davrida o‘quv mashg‘ulotlari yetti yoshli bolaning yosh xususiyatlarini, uning diqqatini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Bu davrda o‘quvchilar uzoq vaqt bir xil ish bilan shug‘ullana olmaydilar. Shuning uchun ham, ish turi har 10-15 minutda boshqasi bilan almashtirib turilishi lozim.

Darsda ish shunday uyushtirilishi kerak: hikoya qilish va suhbatlar o‘quvchilarning faol harakati va jismoniy mashqlar bilan almashtirib turiladi.

Alifbedan rasmlar mazmuni asosida gapni so‘zlarga bo‘lish yuzasidan olib borilgan suhbatdan so‘ng o‘quvchilarga ertak aytiladi. Shu ertak qahramonlarining rasmlarini chizadilar. Ertakdan bitta gap olinib, gap tarkibida nechta so‘z borligi so‘raladi hamda doskaga to‘g‘ri chiziq bilan sxemasi chiziladi. O‘quvchilarning o‘zlari ham doskada va daftarlarida shunday mashqlarni bajaradilar.

Yozuv darsida o‘qituvchining tushuntirishi o‘quvchilarning barmoq harakati yuzasidan bajaradigan mashqlari bilan almashtirib turiladi, ya’ni o‘quvchilar ruchka ushlagan qo‘llaridagi barmoqlarning qanday ko‘tarilishi va pastga tushirilishini ko‘rsatadilar. Bunda ularga harflarni havoda yozish mashqlari qo‘l keladi. O‘quvchilar yozadilar, ularning qo‘llari charchasa, qo‘l va barmoqlarini harakatga keltiruvchi mashqlar bajartiriladi. Masalan,

Yozdik, yozdik,

ISSN 3030-3907

Charchadik.
Ruchkani qo‘ydik,
Dam oldik.
Bu singari mashqlar bolalarni tez charchab qolishlarini oldini oladi hamda ularning diqqatini jamlashga yordam beradi.
O‘quv jarayonini tashkil etish nuqtayi nazaridan savodxonlik jarayonida o‘quvchilarga tabaqalashtirilgan va individual yondashish lozim. Bu bolalarning umumiy rivojlanishdagi sezilarli farqlar bilan bog‘liq. 1-sinfga kelgan yeti yoshli bolalarda o‘qish va yozishga tayyorlik darajasi tadqiqotlarga ko‘ra shuni ko‘rsatdiki, ular harflarning 80 foizini yoki barcha harflarni biladi.
Ularning ko‘plari tahliliy – bo‘g‘inlar, ba’zilari sintetik, ya’ni so‘zlar bilan o‘qiydilar.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashlash lozimki, o‘quvchilar tomonidan gap tuzdirilganda, ularning nutqiga, tovushlarning qanday talaffuz qilishlariga ovozlarini boshqara olishlariga ham e‘tibor berish lozim. Alifbegacha bo‘lgan davrda o‘qituvchi bolalarni dastlab, maktab hayoti, uning ichki tartib qoidalari bilan tanishtiradi, o‘quvchilar maktabda, darsda, tanaffuz vaqtida maktabdan tashqari vaqtda o‘zlarini qanday tutishlari lozimligi o‘rgatiladi, shuningdek maktab va oilada kundalik rejimga ko‘nikma hosil qilib, unga odatlantirila boriladi. Bu davrda o‘qituvchilar o‘quvshilar kollektvini tashkil etishi va har bir o‘quvshi shu kollektivning a’zosi ekanligini ular ongiga singdirish, bolalarga kollektiv bo‘lib ishlashni asosiy tartib qoidalarini o‘rgatishi kabi vazifani bajaradilar: o‘quvchilarda dars jarayonida partada to‘g‘ri o‘tirish, savol yoki javob berishdan oldin qo‘l ko‘tarish, hammaga eshitarli qilib, shoshmasdan, tutilmasdan gapirish kabi, kitob va daftarlarni, shuningdek, sinfdagi jihozlarni ehtiyot qilib saqlash, tanaffuzga chiqish va darsga kirishda shopmaslik kabi ko‘nikmalarni hosil qila boradi. Bolalar maktab binosi, tevarak atrof bilan tanishtiriladi. Ular o‘qituvshining aytganlarini diqqat bilan tinglash, topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarish, savolga javob qaytarish va savol berishga, o‘rtoqlarining javobini tinglashga odatlantiriladi. Ayniqsa, o‘quvchilarni o‘z vazifalarini tushunib, uning o‘z vaqtida to‘liq tushunishga odatlanishi, har bir o‘quvchiga individual yondashib, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini savod olishga qanchalik tayyor ekanligini vaqtida aniqlab olish savod o‘rgatish darslarining to‘g‘ri uyushtirilishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: 2017- yil
2. Akramova S.R. Boshlang‘ich ta’limda bolalar adabiyoti. Buxoro-2023.

ISSN 3030-3907

3. G‘afforova T. G‘ulomova X. 1-sinfda o‘qish dasrlari (O‘qituvchi Kitobi.) Toshkent. Sharq 2003 -yil.
4. Oxunjon Safarov, Bashorat Jamilova, Nigora Safarova, Bolalar adabiyoti va folklori. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent-“Turon-zamin ziyo” 100b
5. Shermuhammad Munis Xorazmiy. “Savodli ta’lim”. T.: 2010.

ISSN 3030-3907